Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida auditorlik faoliyatining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. MDHga a’zo davlatlarda auditorlik xizmatlari bozori va uning tahlili hamda MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyatining ilg‘or tajribasini tadqiq etish bo‘yicha ko‘plab MDH mamlakatlarining iqtisodchi-olimlaridan N.P. Barishnikov, N.T. Beluxa, S.M. Bichkova, Suys, A.A. Terexov va A.D. Sheremetlar tomonidan o‘rganilgan [1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mazkur masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, e’lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o‘rganilgan. Masalan, R.Dusmuratov, M.Tulaxodjayeva, B.Hamdamov, B.Dagarov va I.Qo‘ziyevlar tomonidan MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyatining nazariy hamda amaliy asoslarining ayrim jihatlari o‘rganilgan [2]. Ta’kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo‘lsada, biroq MDHga a’zo davlat auditorlik faoliyatining qiyosiy tahlili hamda ular ilg‘or tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti va yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish va tadqiqot vazifalarini belgilashni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, e’lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o‘rganilgan. Masalan, iqtisodchi-olim A.X.Sattarov tomonidan O‘zbekiston amaliyotida MDH davlatlari ilg‘or tajribalarini qo‘llash jarayonini chuqur tahlil etgan holda, mazkur davlatlar tomonidan auditorlik faoliyati sohasida erishilgan natijalarni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash bo‘yicha amaliy takliflarni shakllantirishga erishgan [3].

Shuningdek, bu borada Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan I.Meliyevning tadqiqotlarida MDH davlatlarida auditorlik faoliyatini tashkil etishning qiyosiy tahlili keltirilgan bo‘lsada, biroq, ushbu davlatlar ilg‘or tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash masalalari yetarlicha bayon etilmagan [4].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditorlik xizmatalari bozori va ularda xalqaro auditorlik standartlarini qo‘llanilish holatining 2014-yilgacha bo‘lgan tahlili O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti(https://www.imv.uz)da batafsil keltirilgan. Biroq, 2014-yildan keyingi yillarda MDH davlatlarida auditorlik faoliyati holatining rasmiy tahlili ma’lumotlari aks ettirilgan manbalar hozirgacha mavjud emas [5].

## TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda audit xizmatlari bozori Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda MDH)ga a’zo davlatlar iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Iqtisodiyotning istalgan segmenti kabi audit xizmatlari bozori ham ko‘rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyati subyektlari asosan auditorlik tashkilotlari hisoblanadi. MDH tarkibidagi Ozarbayjon Respublikasi, Belarussiya, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi kabi davlatlar qonunchiligida auditorlik faoliyatini yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar tomonidan olib borilishiga ruxsat etilgan. Yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar sifatida belgilangan malaka talablariga javob beradigan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tan olinadi.

Shuningdek, ushbu davlatlarda qonunchilik talablariga muvofiq yakka tartibdagi (xususiy) auditorlarning auditorlik faoliyatiga nisbatan cheklovlar belgilangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida yakka tartibdagi auditorlar ijtimoiy ahamiyatli tashkilotlarning (kredit va sug‘urta tashkilotlari, nodavlat nafaqa jamg‘armalari va boshqalar) buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini hamda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini majburiy tekshiruvini amalga oshirishga haqli emaslar. Umuman olganda, MDHga a’zo davlatlarda yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar faoliyati ko‘lami odatda audit xizmatlari bozori ko‘rsatkichlariga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu davlatlarda auditorlik faoliyati subyektlari soni, odatda, auditorlar reyestrlari va audit tashkilotlari ma’lumotlariga asosan aniqlanadi. Ekspertlarning fikricha, bu davlatlar auditorlik amaliyotida auditorlik faoliyati bilan MDHga a’zo davlatlarda bunday huquqi bo‘lgan 70-95% subyektlar shug‘ullanadi.

MDHga a’zo davlatlar amaliyotida auditorlik faoliyati subyektlari quyidagi xizmat turlarini ko‘rsatadilar:

- Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazish;
- Auditga oid professional xizmatlar ko‘rsatish;
- Boshqa auditorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan (buxgalteriya, soliq, yuridik, boshqaruv maslahati, buxgalteriya, soliq hisobini o‘rnatish, tiklash va yurgizish, buxgalteriya (moliya), soliq hisobotini tuzish, buxgalteriya hisobini avtomatizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini joriy qilish, baholash xizmatlari, mutaxassislarni o‘qitish va auditorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, moliya-xo‘jalik ishi tahlili, soliq va bojxona kelishmovchiklari, sud va soliq organlarida vakillik qilish).

Auditning xalqaro standartlari yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasiga muvofiq, auditning xalqaro standartlari xalqaro buxgalterlar federatsiyasining maxsus kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilib, u quyidagi turkumlardagi standartlarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS




1-rasm: O'zbekiston amaliyotida qo'llaniladigan auditning xalqaro standartlari turkumlari[1]

Ta'kidlash joizki, bugungi kungacha o'tkazilgan tadqiqotlar yoki auditga oid me'yoriy hujjatlarda auditning xalqaro standartlari atamasining mazmun-mohiyati aniq va to'liq mazmunda keltirilmaganligini ham ta'kidlash joizdir. Fikrimizcha, auditning xalqaro standartlari deganda Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, auditorlik tekshiruvi va auditorlik turdosh xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yagona talablar, shartlar va tekshiruvni amalga oshirish tartib-qoidalari aks ettirilgan me'yoriy hujjat tushuniladi. O'zbekiston auditorlik amaliyotida 2013-yildan boshlab, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining Xalqaro audit standartlari va axborot ishonchliligini tasdiqlash bo'yicha Qo'mitasining ruxsati bilan davlat tilida auditning xalqaro standartlari tarjima qilinib, auditorlik amaliyotida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Auditning xalqaro standartlari Respublika hududida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli qarori asosida amaliyotga joriy etish jarayoni amalga oshirilmoqda. Mazkur Qarorga muvofiq, auditning xalqaro standartlari 8 bosqichdagi vazifalar asosida Moliya vazirligi, buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, auditorlar palatasi hamda auditorlik tashkilotlari hamkorligida O'zbekiston hududida auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibiga doir vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston moliya vazirligi tomonidan "2022-yil 1-noyabrga qadar auditning xalqaro standartlari bo'yicha bepul o'qitish ta'lim platformasini yaratish choralarini ko'rish" vazifasi yuklatilib, kelgusi yildan e'tiboran, xalqaro standartlar asosida to'liq hajmdagi auditorlik xizmatlarini ko'rsatishi belgilangan [6].

MDHga a'zo davlatlar audit xizmatlari bozorini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan yana biri bu - auditorlik faoliyati subyektlari tomonidan xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni hisoblanadi. Auditorlik faoliyati subyektlari tomonidan MDHga a'zo davlatlarda keng tarqalgan xizmatlar sirasiga moliyaviy hisobot auditi xizmati kiradi. Majburiy audit xizmatida bo'lsa, auditorlik tashkilotlarining mijozlari, odatdagidek, tashkilotlar, tashkiliy savdolarda qatnashish uchun yo'lga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bozori, ochiq aksionerlik jamiyatlari, kredit va sug'urta tashkilotlari, nodavlat nafaqa jamg'armalari, birjalar, investitsiya jamg'armalari, davlat va munitsipal tijorat korxonalaridir. Bundan tashqari, MDHga a'zo davlatlar auditorlik amaliyotida tashabbus tarzi(ixtiyoriy)da amalga oshiriladigan auditorlik nazorati shakli keng rivojlanmoqda.

MDHga a'zo davlatlarning aksariyatida jumladan, Ozarbayjon Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikalarida auditorlik amaliyotining xususiyatli jihatlaridan biri bu ularda auditorlarni o'z-o'zini boshqarish yoki ularni birlashtiruvchi professional tashkilotlarni tashkil qilinganligidir. Bundan tashqari, mazkur davlatlarda, Ozarbayjondan tashqari, auditorlarning o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlarining bir qanchasi mavjuddir, jumladan bunday tashkilotlar Belorussiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasida - ikkitadan, Moldova Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida – uchtadan, Rossiya Federatsiyasida - beshtadan tashkilotlar bugungi kunda faoliyat ko'rsatmoqda.

MDH davlatlarida (Belorussiya Respublikasidan tashqari) Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining (International Federation of Accountants) a'zosi bo'lgan auditorlarning o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari mavjuddir, jumladan, Ozarbayjon Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Moldova Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida – bittadan tashkilot, Rossiya Federatsiyasida esa – uchta tashkilot faoliyat ko'rsatayotganligini ta'kidlash joiz.

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Oxirgi o‘n yillikda dunyoda audit xizmatlari bozorining asosiy elementlaridan biri bu auditorlik amaliyotida xalqaro audit standartlari(keyingi o‘rinlarda XAS)ni qo‘llash amaliyoti bo‘lib kelmoqda. MDHga a’zo davlatlarning auditorlik faoliyati milliy tizimlarining o‘xshash jihati auditorlik faoliyatini tartibga solishda XASni asosiy vosita sifatida qabul qilishlaridadir. Yondashuvning bunday konseptual birligi quyidagi asosiy sabablar bilan o‘zaro bog‘langan:

*Birinchidan,* hozirgi davrda mustaqil xalqaro nodavlat institutlari tomonidan ishlab chiqilayotgan XASda auditorlik faoliyatiga qo‘yiladigan universal va sifatli talablar tizimini o‘z ichida mujassamlashtirganligi;

*Ikkinchidan,* MDHga a’zo davlatlarning milliy iqtisodiyotida investitsiyalarni rag‘batlantirish, milliy kapital bozorlarini faollashtirish, bundan tashqari, zamonaviy hayotda xalqaro tan olingan MHXS va XASdan foydalangan holda investorlar uchun qulay axborot muhitini yaratishga bo‘lgan intilishning yuqoriligi;

*Uchinchidan,* XASning oxirgi yillardagi xalqaro ommabopligi keskin oshdi, ko‘pgina davlatlarda XAS talablari to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilindi. Shu munosabat bilan, XAS ayrim davlatlarning jahon siyosatiga qo‘shilishi elementi sifatida qaraldi. Shuningdek, MDHga a’zo davlatlar tarkibidagi Ozarbayjon Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikalarida XASni joriy qilishning milliy dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Mazkur dasturlarni amalga oshirish audit institutlari hamda boshqa organlar bilan birgalikda moliya vazirligiga yuklatildi (1-jadval).

1-jadval: MDHga a’zo davlatlarda xalqaro audit standartlarini joriy qilinishi holati[2]

| MDHga a’zo davlatlar | XASni joriy qilish rejasi (dasturining) mavjudligi | Rejani (dasturni) amalga oshiradigan vakolatli organlar | XASni joriy qilish davri |
|---|---|---|---|
| Ozarbayjon Respublikasi | Ҳа | – | 01.01.2010-yildan boshlab |
| Armaniston Respublikasi | Йўқ | – | – |
| Belorussiya Respublikasi | Йўқ | – | – |
| Qozog‘iston Respublikasi | Ҳа | Moliya vazirligi, malakali auditorlik tashkilotlari | 2006-yildan boshlab |
| Qirg‘iz Respublikasi | Ҳа | – | 2003-yildan boshlab |
| Moldova Respublikasi | Ҳа | Moliya vazirligi, Maorif vazirligi, buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo‘yicha malakaviy assotsiatsiyalar | 01.01.2012-yildan boshlab |
| Rossiya Federatsiyasi | Ҳа | Moliya vazirligi, auditorlik faoliyati bo‘yicha Kengash, auditorlarning o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari | 2013–2016-yillar |
| Tojikiston Respublikasi | Йўқ | – | – |
| O‘zbekiston Respublikasi | Ҳа | Moliya vazirligi, Markaziy Bank, buxgalterlar va auditorlarning kasbiy birlashmasi | 2011–2015-yillar Bosqichma-bosqich |

MDHga a’zo davlatlarda XAS talablarini joriy qilishdagi asosiy muammo bu – XAS talablari asosida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Bugungi kunda, ko‘pgina MDHga a’zo davlatlar, jumladan, Belorussiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi audit o‘tkazish XAS asosida ishlab chiqilgan milliy standartlar asosida auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazib kelmoqda. Ta’kidlash joizki, ayrim MDHga a’zo davlatlarda XAS talablari to‘g‘ridan to‘g‘ri auditorlik amaliyotida to‘liq qo‘llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda XAS talablari Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi va Moldova Respublikalari auditorlik amaliyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy standart sifatida to‘liq qo‘llanilmoqda. Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikalarida bosqichma-boqich XASni milliy standartlar sifatida qo‘llashga o‘tish rejalashtirilgan (2-jadval). MDHga a’zo davlatlarda XASga o‘tishda jahon amaliyoti tajribasini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash jarayoni vakolatli davlat organlari bilan birgalikda asosan auditning jamoat professional tashkilotlari orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval: XAS ni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish[3]

| MDHga a'zo davlatlar | XASni joriy qilishni umumlashtirish va ommalashtirish tizimi |
|---|---|
| Ozarbayjon Respublikasi | Auditorlar palatasi XASni joriy qilish bo'yicha seminar va simpoziumlar o'tkazadilar; ommaviy axborot vositalari orqali ommalashtiriladi |
| Armaniston Respublikasi | Ma'lumot yo'q |
| Belorussiya Respublikasi | Moliya vazirligi va Milliy bank tavsiyalar ishlab chiqadi |
| Qozog'iston Respublikasi | XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish tizimi Moliya Vazirligi va auditorlarni o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari "Qozog'iston Respublikasi auditorlar palatasi", "Auditorlar kollegiyasi" o'zaro ta'siriga asoslanadi. Malakali tashkilotlar auditorlar va audit tashkilotlari ishi tajribasini umumlashtiradi va ommalashtiradi, o'quv adabiyotlari tarqatadi, uslubiy tavsiyanomalar chop qilishadi, davriy jurnallar chiqarilishini va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi, o'quv seminarlarini o'tkazadi |
| Qirg'iziston Respublikasi | XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish Qirg'iziston Respublikasi Hukumati qoshidagi moliya bozorini tartibga solish va kuzatuv davlat xizmati tomonidan standartlarni erkin olish va qo'llash uchun qo'yish orqali |
| Moldova Respublikasi | XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish Moliya vazirligi, Maorif vazirligi va buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo'yicha malakaviy assotsiatsiyalar tomonidan standartlarni erkin olish va qo'llash uchun qo'yish hamda o'quv seminarlarini o'tkazish orqali |
| Rossiya Federatsiyasi | Auditorlarning o'zini-o'zi boshqarish tashkiloti - buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi a'zolari XASni qo'llash tajribasini ommalashtiradilar |
| Tojikiston Respublikasi | XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish malakali buxgalterlar va auditorlarning instituti orqali malaka oshirish bo'yicha kurslar o'tkazish orqali hamda buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha MHXSni joriy qilish bo'yicha Hukumat komissiyasi qoshidagi uslubiy kengash Moliya Vazirligi bilan birgalikda XASni joriy qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish qismi bo'yicha |
| O'zbekiston Respublikasi | XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish buxgalterlar va auditorlarning kasbiy birlashmasi, Moliya vazirligi tomonidan o'quv adabiyotlarini tarqatish, uslubiy tavsiyalarni chop etish, o'quv seminarlarini o'tkazish, hamda auditorlar va buxgalterlar malakasini oshirish kurslarini o'tkazish orqali amalga oshirilmoqda |

Bizningcha, MDHga a'zo davlatlar auditorlik amaliyotida XASni joriy qilish va qo'llash jarayonida institutsional, tashkiliy-huquqiy, moliyaviy, kadrlar tayyorlash va boshqa uslubiy muammolar mavjud. O'z navbatida mazkur muammolarni yechish tom ma'noda XASni qo'llashda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llashning institutsional muammolari sifatida institutsional muhitning yo'qligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi umumiy muammolar mavjuddir. MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llash uchun nafaqat standartlarning milliy tilga tarjimasini amalga oshirish, balki mazkur matnlarga har qanday manfaatdor shaxsning to'siqsiz foydalanish huquqi bilan ta'minlash muammolari ham mavjuddir. Fikrimizcha, hozirgi vaqtgacha, MDHga a'zo davlatlar bu muammolarni mustaqil ravishda yechib keldilar. Ammo, MDHga a'zo davlatlarning aksariyati uchun XASning tarjimasining yo'qligi va XASni qo'llashning moliyaviy muammolarining mavjudligi yoki MDHga a'zo davlatlarning moliyaviy manbalarining cheklanganligi kabilar mazkur muammoni jiddiylashtirdi. Bu davlatlarda XASni qo'llashning kadrlarga oid muammolari auditorlarda XAS sohasi bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarning yetarli darajada emasligi bo'lib, bunda XASni qo'llashga o'tishda mahalliy tillardagi miqdor va sifat jihatdan uslubiy materiallarning yetishmasligi kabi muammolarni ta'kidlash mumkin (5-jadval).

MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llashning uslubiy muammolari sifatida XASning ayrim qoidalarining milliy normativ hujjatlar talablariga mos kelmasligi tufayli yuzaga keldi. Bu esa uslubiy muammolarni MDHga a'zo davlatlarning auditorlik faoliyati sohasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni amalga oshirishni taqozo etdi.

3 Muallif tomonidan tayyorlangan.

5-jadval: MDH davlatlarida XASning davlat tiliga tarjima qilinishi[4]

| MDH ishtirokchi davlatalari | XAS tarjimasining mavjudligi | XAS tarjimasini tayyorlashga ma'sul organlar | XAS tarjimasining maqomi |
|---|---|---|---|
| Ozarbayjon Respublikasi | Ozarbayjon tiliga | Auditorlar palatasi | Rasmiy |
| Armaniston Respublikasi | Arman tiliga | Moliya Vazirligi | Rasmiy |
| Belorussiya Respublikasi | Beloruss tiliga | – | Norasmiy |
| Qozog'iston Respublikasi | Qozoq tiliga (turi 2009 y.) | Moliya Vazirligi | Rasmiy |
| Qirg'iz Respublikasi | – | Davlat Moliya kuzatuvi | – |
| Moldova Respublikasi | Rumin tiliga | XAS bo'yicha kengash | Rasmiy |
| Rossiya Federatsiyasi | Rus tiliga | – | Norasmiy |
| Tojikiston Respublikasi | – | Moliya Vazirligi | – |
| O'zbekiston Respublikasi | O'zbek tiliga1 | Buxgalterlar va auditorlarning malakali birlashmasi, Moliya Vazirligi, Milliy Bank | – |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston va MDH davlatlari auditorlik faoliyatining qiyosiy tahlili natijalari hamda rivojlangan MDH davlatlari ilg'or tajribasini o'rganish borasidagi tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida Markaziy Osiyo davlatlari, Xitoy, Rossiya va Ozarbayjon Respublikasi kabi davlatlar auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi bosh qonunlaridagi kabi auditorlik faoliyatiga oid ayrim asosiy tushunchalar mazmuni qonunga kiritish zarurligi, ichki audit faoliyatining qonun yo'li bilan mustahkamlash lozimligi, auditor va auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda audit sohasi bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha me'yorlarni ishlab chiqish yoki qonunchilikda auditor va auditorlik tashkilotlariga ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda audit sohasi bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyat (xizmat) turi bilan shug'ullanish uchun me'yoriy-huquqiy qoidalarni joriy etish maqsadga muvofiq;

O'zbekiston auditorlik faoliyatida ham rivojlangan MDH davlatlari kabi xususiy auditorlik amaliyotini joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun esa, auditorlik faoliyati rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini chuqur o'rgangan holda amaldagi qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zarur;

O'zbekiston auditorlik faoliyatida Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlaridagi kabi ichki auditorlik faoliyatini hamda auditor va auditorlik tashkilotlari javobgarligini majburiy sug'urtalashni maxsus qonun orqali tartibga solishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O'z navbatida buni ta'minlash maqsadida auditorlik amaliyoti rivojlangan davlatlarning bu boradagi qonunchilik tizimini chuqur tahlil etgan holda "Auditorlik tashkilotlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urtalash" to'g'risidagi Qonun hamda "Ichki audit to'g'risida"gi Qonun loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish lozim deb hisoblaymiz;

Izlanishlar natijasida, Bugungi kunda, O'zbekistonning xalqaro tarmoqqa kirgan 24 ta auditorlik tashkilotlari amaliyotida auditorlik tekshiruvlari auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq, ya'ni, AuditNET, IT AUDIT: Auditor, Kompleks Audit, "Ekspress audit:PROF", AUDITSOFT, Audit Sampling, First-Audit va Voyager kabi auditorlik platformalaridan foydalanmoqda, qolgan 80 dan ortig'i yoki auditorlik tashkilotlarining 80 foizidan ortiq qismi haliyam "qo'l usuli"da auditorlik tekshiruvini amalga oshirib kelmoqda. Bu esa, ma'lumotlarni hisoblash, qayta ishlash, tahlil qilish, uzoq muddat davomida saqlash, axborot almashinuv, tekshiruvni shartnomada belgilangan muddatda yakunlash va auditning xalqaro standartlari asosida tekshiruvni amalga oshirishda turli xatolik va noaniqliklarga sabab bo'lmoqda;

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi auditorlik tashkilotlarining professional jamoat birlashmalari(O'zbekiston auditorlar palatasi, O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston buxgalterlar federatsiyasi)ga ham auditorlik amaliyoti rivojlangan davlatlardagi kabi ularga auditorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha keng miqyosdagi vakolat va huquqlar berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

Auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari tarkibini xalqaro standartlar me'yorlari va ilg'or xorij tajribasiga muvofiqlashtirish maqsadida xizmatlar tarkibiga buxgalteriya hisobi, audit, soliq solish, hamda moliyaviy rejalashtirishga doir seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, hisobni yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish hamda moliyaviy axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish xizmatlarini kiritish maqsadga muvofiq.

4 Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Барышников Н.П. Организация и методика проведения общего аудита. 4-е изд. перер. и доп. –М.: Филин, 1998.–528 с.
2. Белуха Н.Т. Аудит. Учебник "Знания", КОО, 2000.-769 с; Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика.–СПБ.: Лань, 2000.–320 с.
3. Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. –М.: Финансы и статистика, 2001. –560 с; Суйц В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. –М.: ИНФРА-М. –2009. –456 с.
4. Dusmuratov R.D. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent – 2008. –35 b.
5. Tulaxodjayeva M.M. Korxona moliyaviy ahvoli auditi. –T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".–1996.–193 b.
6. Hamdamov B.Q. O'zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent – 2007. –33 b.
7. B.M.Dagarov. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish. PhD. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. –Toshkent-2023.–62 b.
8. Qo'ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. -70 b.
9. Sattorov A.X. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida auditorlik faoliyatini o'rganish tajribasi // Iqtisodiyot va turizm ilmiy va innovatsion jurnali // Toshkent-2023 // №2 son https://www.mf.uz.
10. I.I. Meliyev. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar: Monografiya. –T.: "Iqtisod-Moliya", –2020.– 174 b.
11. https://www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
12. https://lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari portali.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.